

FIZIKADAN TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI

TASHKIL ETISH

Abdulazizov Baxrom Toshmirza o'g'li

Namangan davlat universiteti Fizika kafedrası professori vazifasini bajaruvchisi, fizika-matematika fanlari doktori

Zaxidov Ibroximjon Obidjonovich

Namangan davlat universiteti Fizika kafedrası dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqil ta'lim va uni tashkil etishdan maqsad, vazifalar, mustaqil ta'lim shakllari, talablar bajarilishi lozim bo'lgan ishlar fizika o'qitish metodikasi fani misolida ko'rsatib berigan. Uni samarador bo'lishi uchun mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishga yo'naltirilgan tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: fizika fani, o'zlashtirish, mustaqil ta'lim, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ish topshiriqlari, rejali faoliyat.

Oliy o'quv yurtlarida fizika fanining maqsadi: uning predmeti va metodlari, ta'limning barcha bosqichlarida fizika fanini o'qitishning mazmuni va vazifalari, o'quv fizika eksperimentining vazifalari, fizikadan masalalar yechish metodikasi, fizika o'quv mavzulariga pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari, fizikadan bilimlarni chuqurlashtirish, talabalarning har tomonlama qiziqishini va qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning mutaxassislik bo'yicha yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Talaba fanni o'zlashtirishda ta'limning innovatsion usullaridan foydalanishi, yangi pedagogik axborot va internet texnologiyalarini tadbiiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o'zlashtirishda o'quv uslubiy ta'minot (darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar modul topshiriqlari)dan foydalanilish tavsiya etiladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda turli metod va vositalardan xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o'yinlar, portfolio, keys-stadi, loyihalash, grafik organeyzerlar, kompyuter dasturlaridan, internet tarmog'idan, ko'rgazmali materiallardan, ilgor pedagogik va axborot texnologiyalaridan shuningdek, o'qitishda namoyish tajribalari, video lavhalar, virtual laboratoriyalar, multimediali elektron qo'llanmalardan foydalanish mumkin [1-7]. Bunda fanning asoslarini chuqur o'rganish uchun talaba ko'proq mustaqil shug'ullanishi, o'z bilimlarini zamon talabi darajasida tinmay rivojlantirib borishi kerak bo'ladi. Shining uchun ham etuk mutaxassis bo'lishda mustaqil ta'limning o'rni kattadir.

Misol uchun Fizika o'qitish metodikasi fanini oladigan bo'lsak, semestrlar bo'yicha mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar taqsimotida fanga jami 240 soat ajratilgan bo'lib [8], undan 40 soati ma'ruza, 50 soati seminar mashg'ulotidir. E'tibor bergan bo'lsangiz qolgan 150 soati mustaqil ta'limga berilgan. Talabalarga mustaqil ta'lim haqidagi tushunchalarini rivojlantirish va ajratilgan soatni qachon va qanday bajarilishi kerakligi g'oyat muhimdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishdan maqsad talabalarining muayyan fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, fan professor-o'qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovasion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishish;

talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar, mustaqil faoliyat yuritish va kreativ fikrlash ko'nikmalari rivojlanishini ta'minlash;

muayyan sohaga oid masala va muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilish hamda uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qodir yetuk mutaxassisni tarbiyalash;

ta'lim dasturlaridagi fanga oid ko'nikmalarga qo'shimcha ravishda fanlararo ko'nikmalar (uslubiy, ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalar)ga ega bo'lish.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

darslik, o'quv qo'llanmalar va o'quv-uslubiy majmualar bo'yicha, fan boblari va mavzularni o'rganish;

fan mavzulari bo'yicha turli topshiriqlarni bajarish;

seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

tarqatma matnalar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

fan mavzulari bo'yicha ma'ruza qilish;

tanlangan mavzu bo'yicha o'zaro savol-javoblar o'tkazish;


amaliy mashg'ulotlarga va uy vazifalarini bajarishga tayyorgarlik;

nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

dars ishlanmashrini tayyorlash va boshqalar.

Qisqacha talaba mustaqil ish topshiriqlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

Talaba mustaqil ishi topshiriqlari



Albatta bu har bir fandan talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarishi uchun ularga uslubiy ko'rsatmalar tavsiya etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim: maqsadning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va h.q.) aniq asoslanishi; vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi; topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlardan talabalarning yetarli darajada xabardor bo'lishi; maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.q.); hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash; nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, test, ko'rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.q.) zarur bo'ladi.

Mustaqil ish talabalarning o'z oldilariga u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yishi, o'z faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirishi hamda o'zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanadi [9-11]. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish o'rganilayotgan fanning tuzilishi, xarakteri va xususiyatlariga, uni o'rganishga sarflangan soatlar miqdoriga, o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun topshiriqlar turiga, o'quvchilarning individual fazilatlariga va ta'lim

sharoitlariga bog‘liq faoliyatdir. Shunday ekan mustaqil ta’limni qaysi shaklini tanlashimizdan qat’iy nazar u talabanning rejali faoliyatiga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaxidov I.O., Alijanov D.A., Soyipov J.J/ Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. Uslibiy ko‘rsatma. Namangan-2021.
2. Zaxidov I., Abdullajonov B., Bekmirzaev S. Мактабда электр токи конунларини ўқитишда ўқувчиларнинг илмий билиш қобилиятларини ривожлантириш //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В8. – С. 1013-1016.
3. Zaxidov I., Boyturayeva G. Use of Natural Science and Geography materials in Physics teaching //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В3. – С. 483-487.
4. Zaxidov I. O., Karimov A. M. Development of students'ecological culture by directing innovative activities using steam technology //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. А10. – С. 251-255.
5. Zaxidov I., Qodirov X. The significance of teaching knowledge of homogeneous magnetic field through the android program in a school physics course //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. В5. – С. 110-116.
6. Turdaliyev U. Namoyish tajriba turlari va ularning ahamiyati //Interpretation and researches. – 2024.
7. Алижанов Д. Способы развития научного мышления учащихся при обучении строения вещества в курсе физики в 6 классе //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/С. – С. 15-19.
8. Zaxidov I. Fizika o‘qitish metodikasi. Fan dasturi. Namangan-2024.
9. Ibragimov R. Methodology of teaching physics in vocational schools //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В9. – С. 206-210.
10. Ibragimov R. Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o‘rganishda o‘quvchilar o‘rtasida eksperimental ko‘nikmalarni shakllantirish //Farg‘ona davlat universiteti. – 2024. – №. 1. – С. 17-17.
11. Xasanboy o‘g‘li I. R. Modeling of Educational and Professional Activities of Students in the Process of Teaching Physics in Vocational Schools //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 550-552.